

111Equation Chapter 1 Section 1**INGLIZ TILINI MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALARGA O'RGATISHDA ERTAKLARDAN
FOYDALANISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA USULLARI**

Israilova Dildora Atxamovna

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini

Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti,

Milliy tadqiqot universiteti, "Ingliz tili" kafedrası o'qituvchisi

israilovadildora@gmail.com

Annotatsiya. Ertaklar ilk maktabgachagacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bolaning o'z qiziqishlari hamda dunyoqarashi doirasida qiyinchilikka uchramasdan til o'rganishi uning motivatsiyasi davomiy bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur maqolada ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatishda ertaklardan foydalanish masalalari tahlil va misollar yordamida muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, zamonaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, ertak, o'qitish metodikasi, ingliz tili, ta'lim texnologiyasi, dars samaradorligi, motivatsiya.

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
СКАЗОК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

Исраилова Дилдора Атхамовна

Преподаватель Ташкент ирригация и сельское хозяйство

Институт Инженеров Механизации,

Национальный исследовательский университет

Аннотация. Сказки считаются одним из самых эффективных средств обучения английскому языку детей раннего дошкольного возраста. Тот факт, что ребенок изучает язык в рамках своих интересов, а также мировоззрения, не испытывая затруднений, гарантирует, что его мотивация будет продолжаться. В данной статье рассмотрены вопросы использования сказок в обучении детей дошкольного возраста английскому языку с использованием анализа и примеров.

Ключевые слова: дошкольники, современное образование, инновационный подход, сказка, методика обучения, английский язык, образовательные технологии, эффективность урока, мотивация.

**MODERN METHODS AND METHODS OF USING FAIRY TALES
WHEN TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN**

Israilova Dildora Atkhamovna

English Teacher of Tashkent Irrigation and Agriculture

Institute Of Mechanization Engineers,

National Research University

Abstract: *Fairy tales are considered one of the most effective means of teaching English to early preschool children. The fact that the child learns the language within the framework of his or her interests as well as worldview without being challenged ensures that his or her motivation will continue. This article discusses the use of fairy tales in teaching English to preschool children using analysis and examples.*

Key words: *preschool children, modern education, innovative approach, fairy tale, teaching methodology, English, educational technology, lesson effectiveness, motivation.*

KIRISH.

Yurtboshimizning chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan chiqargan qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning fikrlariga ko'ra, har bir soha egasi o'z sohasini mukammal egallashi va jahon miqyosida raqobatlasha olishi uchun xorijiy tilni bimalol tushuna olishi va unda puxta so'zlasha olishi zarur.

Bugungi kunda xorijiy tillarga ehtiyoj balandligi sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatish metodikalari ustida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bolalar hayotida ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklarning asosiy vazifasi- bolalarga tushunarli tilda dunyo haqida gapirib berish. Ertaklar bolalar saviyasiga mos holatda bo'lishi shart. Ularning asosiy mavzulari tabiat, hayvonat olami, do'stlik, odob-axloq, yaxshilik va yomonlik haqida bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sehrli fantastik ertaklar ertaklarning alohida turini tashkil qiladi. Xususan, sehrli predmetlarning ishtiroki bunday ertaklarning tabiatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. G'aroyib xususiyatli predmetlarga sehrli uzuk, ochil dasturxon, qaynar xumcha, ur to'qmoq, uchar gilam, kiya ko'rinmas holga evriltiradigan qalpoq yoki to'n, yesa yashartiradigan yoki sog'aytiradigan, hatto o'ldirishi mumkin bo'lgan olma, sehrli qilich, sehrli tayoqcha va hokazolarni misol qilish mumkin[1]. Sehrli tayoqcha obrazi, asosan, g'arb ertaklari, xususan, ingliz xalq ertaklarida uchraydigan

tilsim predmet bo'lib, o'zbek folklorida bunday obrazni uchratmaymiz.

Folklorshunoslar Ernest va Yoxanna Leynerlarning fikriga ko'ra, sehrli tayoqlardan foydalanish motivining asoslari Injildagi diniy afsonalarga borib taqaladi.

Aytilishicha, o'tmishda professional sehrgarlar Aaronning tayog'i ramzidagi novdadan sehr kuchi timsoli sifatida foydalanishgan. Bu novda kerakli vaqt va zarur sharoitda sehrli tayoqqa aylanib, odamlarga yordam berishiga ishonilgan.

Muso payg'ambar haqidagi afsonalarda uning mo'jizaviy kuchga ega sehrli tayoq asosi bo'lganligi aytiladi. Muso alayhissalom u orqali Qizil dengizni ikkiga ajratib, undan oson kechib o'tgancha, bostirib kelayotgan dushmandan xalqini sog'omon qutqargani, toshdan suv chiqargani bayon etiladi.

Horunning ham sehrli aso tayog'i bo'lgani, uni uloqtirganda ilonga aylangani va bu ilon atrofda yig'ilgan boshqa ilonlarni yutib yuborgani hikoya qilinadi. Keyinchalik Misrda balolarni boshlashga sababchi bo'lgan bu qudratli tayoq asoning Ahd sandig'ida xavfsiz saqlangani aytiladi.

Sehrli tayoq obrazi qadimgi yunon yozuvchisi Gomerining "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida ham uchraydi. Bunda Gomer novda degan ma'noni anglatuvchi "rabbos" so'zini ishlatgan, lekin bu so'z kichik hajmda anglashiladigan tayoqchani emas, balki katta va qalinroq hajmdagi tayoqni anglatadi.

Gomer sehrli tayoqchalarni uch xudo: Germes, Afina va sirseya ishlatganini yozadi. Masalan, "Iliada"da Germes sehrli tayoqchadan foydalanib, odamlarni uxlatadi yoki uyg'otadi[2]. "Odisseya"da esa Afina sehrli tayoqcha yordamida Odisseyni qari qilib, keyin yana uni yoshartiradi. sirseya sehrli tayoqcha yordamida Odissey odamlarini cho'chqaga aylantiradi. Ko'rinadiki, Gomer sehrli tayoqcha obrazidan ma'budlarning kuch-qudratini bo'rttirish maqsadida foydalangan. Bunda sehrli tayoqcha "evriltiruvchi" xususiyatga ega tilsim predmet sifatida ko'rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ingliz xalq ertaklarida ham sehrli tayoqcha obrazi turli holatlarda bosh

qahramonga ko‘mak beruvchi, uni murod-maqsadiga, orzu-intilishlariga yetkazuvchi vazifasida talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, “*Qizil Ettin*” (“*Red Ettin*”) nomli ingliz xalq ertagida sehrli tayoqcha obrazi uchraydi. Unda hikoya qilinishicha, ertak bosh qahramoni safardaligi chog‘ida bir kekxa ayolni uchratadi va ayol nonidan bir oz berishini so‘raydi. Yigit rozi bo‘lib, nonidan bergani uchun ayol unga sehrli tayoq hadya qiladi. Bu kekxa ayol aslida yaxshi pari bo‘lib, yigitga kelgusida u bilan sodir bo‘ladigan voqealar hamda nima qilishi kerakligi haqida kerakli maslahatlarni beradi. Sehrli tayoqchadan to‘g‘ri foydalansa, u yigitga ko‘p vaqtlar xizmat qilishi mumkinligini aytib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Yigit dahshatli hayvonlar yashaydigan joyga kelib qolganida, sehrli tayoqcha yordamida ularni yengadi va yo‘lida davom etadi.[2]“*Keyt Krekernats*” (“*Kate Crackernuts*”) ertagida bosh qahramon Keytning opasining boshi sehr tufayli qo‘yning boshiga aylangan bo‘ladi. Bir kuni Keyt sehrli tayoqchasini o‘ynab turgan pari bolaga duch kelib, shu tayoqcha bilan uch marta urilsa, opasi yana o‘z holiga qaytishini bilib qoladi. Shundan so‘ng Keyt pari bolani yong‘oq o‘yiniga chalg‘itib, u tushirib qo‘ygan sehrli tayoqchani oladi va fartugiga yashiradi. Uyiga kelgach, opasi Annani tayoqcha bilan uch marta urib, sehr kuchini yo‘qotadi. Shu bilan opasi yana o‘z holiga qaytadi[2].

“*Quduqdagi uchta bosh*” (“*Three heads of the well*”) ertagida o‘gay ona zulmidan charchagan malika o‘z baxtini topish uchun safarga otlanadi. Yo‘lda bir cholga duch keladi va chol undan yegulik so‘raydi. Qiz unga yeguligidan beradi. Chol esa qizga minnatdorchilik bildirib, qo‘liga sehrli tayoqcha tutqazadi. Sehrgar chol qizga uning oldidan tikonli to‘siq chiqishini va shu sehrli tayoqcha bilan uch marta ursa, bu to‘siq ochilib, yo‘lida davom etishi mumkinligini aytadi. Xuddi aytilganidek, qiz katta tikanli to‘siqqa duch keladi va sehrli tayoqchasi yordamida uni kesib o‘tadi. [3]

“*Saint George of Merry England*” ertagida sehrli tayoqcha jodugar tomonidan bosh qahramon Jorjga o‘zi bilan qolishi uchun pora sifatida beriladi. Ertak qahramoni esa shu sehrli tayoqcha yordamida sehrlangan hudud hokimiyatini qo‘lga kiritadi. U

tayoqcha bilan qudratli bir qoyani urganida, qoya ochilib, ichida yovuz sehrigar o'ldirgan barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlar tanalari ko'rinadi. Jorj sehrigarning qotil ekanini bilgach, tayoqcha kuchidan foydalanib, uning o'zini o'sha yerga yetaklab boradi. So'ngra uni qoyaga qamab, sehrli tayoqcha bilan qoyani urgancha abadiy yopib, jodugarni o'sha yerda abadiy qoldiradi.[4]

Ertaklarda sehrli tayoqcha, asosan, sehrigar chol yoki pari tomonidan ijobiy qahramonga taqdim qilinib, uning og'irini yengil qilishga, har xil to'siqlarni oson yengib o'tishiga, muammolarni tez hal qilishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarning ongi atrof muhitdagi jismoniy faolliklardan hamda ularga taqlid qilish orqali rivojlanadi. Ertaklar tuzilish jihatidan sodda bo'lganligi sababli bola ongida tez o'rinishadi va ular odat tusiga kirib qoladi. Tabiiyki yosh bolalar yorqin ranglarga va noodatiy bo'lgan ertak qahramonlariga qizidadi. Ertaklar bir necha turga bo'linadi va ular qiz bolalarga hamda o'g'il bolalarga hos tarzda ham bo'ladi. Ertaklarda etika va estatika muhim ro'l o'ynaydi.

Qizlar uchun atalgan ertaklar asosan uy yumushlari, tozalik, ozodalik, nafislik va shu kabi mavzularni qamrab oladi. Bunga misol qilib mashhur ertaklardan biri " Zumrad va Qimmat"ni olish mumkin. Ertaklarni o'g'il bolalarga bog'laydigan bo'lsak, unda asosan tashqi olam, kuchlilik, mardlik, jasurlik va shu bilan birga mahorat ya'ni kasb- hunar haqida gapiriladi. Bolalar ingliz tilini o'rganish bilan birga xulq-atvorini ham ma'nan boyitib boradi. Ingliz tilini ertaklar orqali o'rgatish samarali usul hisoblanadi.

Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaning hayoti sevimli ertaklarida dasturlashtirilgan. "Menga eng sevimli ertakingiz nima ekanligini ayting, men sizga kimligingizni aytaman" - psixoanalitiklarning mashhur maqolini shunday ifodalagan. Ota-onalar ertak terapiyasini mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin, ammo psixologik maslahat hali ham zarar qilmaydi. Bolaning xulq-atvoriga yumshoq

ta'sir qilish uchun psixolog maxsus ertaklarni tanlaydi[2].

Ingliz tilini o'rganayotganda o'yinchoqlardan foydalanish xotirada tez eslab qolishga yordam beradi. Qisqa dialogli inglizcha ertaklarni qo'g'irchoqlar orqali aytib berilsa, ularning diqqatini qarata oladi. Ilk maktabgacha yoshidagi bolalar maksimal 15 daqiqa diqqatini jamlay oladi. Tasvirlanayotgan ertakda emotsiya, ovoz to'ni va ovozga taqlid muhim ro'l o'ynaydi. Ya'ni jonlantirish san'atidan foydalaniladi. Bolalar ovozlarni eshitish orqali tasvirlanayotgan sahna nima haqida ekanligini anglaydi.

Ertaklarga quyidagi shartlar qo'yiladi[3]:

1. Hamma uchun tushinarli bo'lishi
2. Qisqa dialoglardan tashkil topishi
3. Sarlovhaning bolalarga xos bo'lishi
4. Ertaklarning mazmun mohiyati mentalitetimizga mos bo'lishi

Chet el ertaklarini aytayotganda u ertak bolalarning ona tilida tarjimasi bor va u bolalar o'rtasida mashhur bo'lsa, ular syujet orqali ertakning mazmunini tushinishi oson bo'ladi. Bolalar voqealar rivojiga ham qiziqadilar, ham chet tilini o'rganadilar. Mashhur rus ertagi "Qizil qalpoqcha" misolida ko'rib chiqilsa unda eng mashhur dialoglardan biri "Why do you have big eyes" yoki "Why are your hands large". Bu monologda qo'g'irchoqlar qo'lga yoki ko'ziga ishora qilinsa, bu gap anglaniladi va o'rganish tezlashadi. Bu usul qiziqish orqali o'ziga jalb qiladi. Bolalar qo'g'irchoqlarni ushlab uni o'rganishga xarakat qiladi. Bolalar og'zaki ingliz tilini o'rganishda katta to'siqlarga ega emas, ular katta yoshli bolalardek xato qilishdan qo'rqmaydi. Bolalarda chet tilini o'rganishga qiziqishni orttirish va u bilan jiddiy shug'illanish istagini uyg'otish bu-darsga ijobiy munosabatni shakllantirishdir.

XULOSA.

Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarga ingliz tilini samarali o'rgatish hamda kitobxonlikni oshirish, rivojlanayotgan nutqni ko'p tillikka moslashtirish ya'ni ingliz

nutqini ham birga rovojlantirish, o'stirish bola uchun eng foydali yo'l hisoblanadi. Yosh bolalar yangi so'zlarni tez yodlab olishga qobiliyati katta bo'ladi. Tabiiyki bu yoshdagi bolalarga ingliz tilini qandaydir strukturalar orqali o'rgatish, bolalarga salbiy ta'sir o'tkazishini ko'rishimiz mumkin. Masalan bu ularda tilga nisbatan nafrat yoki qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun bolalarga chet tilini samarali o'rgatishda ertaklarning zamonaviy turlaridan oqilona foydalanish, dramatishtsiyalash, rolli o'yinlar, savol javoblar, harakatlar orqali qahramonni tasvirla kabi qiziqarli metodikalardan foydalanish, bolalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib, ularni chet tiliga yanada qiziqtiradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Po'lat F. Ingliz ertaklari. – London, 2015. – 142 b.
2. Jacobs J. Ingliz ertaklari va boshqa ingliz ertaklari. – London, 2012.– 408 b.
3. Ermolina M.V "Bolalar bog'chasida ertak terapiyasi" 2012-yil.
4. Zubaydova N.N "The teaching of English for specific purposes" 2019-yil.
5. Rasulova Z. O'zbek xalq sehrli ertaklarida “g'aroyib buyumlar” (spesifikatsiya, genezisi va badiiyati): Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T., 2012. – 26 b.
6. Mamasali Jumaboyev "Bolalar adabiyoti" Toshkent - 2008-yil.
7. Dilya Usmonova "Bolalar va ertaklar" 2020-yil.